



O'ZBEK TILIDAGI MICROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING ORFOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Bobir Maxammadov

Andijon davlat chet tillari mustaqil izlanuvchisi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
+998973783445
maxammadovuz@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377413>

Annotatsiya

Ushbu maqolada Microsoft Windows operatsion tizimiga oid o'zbekcha terminlarning orfografik xususiyatlari tizimli tahlil qilinadi. Maqsad — FI matnlari va tizim hujjatlarida uchraydigan atamalarning yozuv me'yorlarini aniqlash, variativ (bir necha ko'rinishda yoziladigan) shakllarni normallashtirish va amaliy tavsiyalar berish. Empirik material sifatida Windows 10–11 interfeysi, rasmiy tarjima resurslari hamda “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari” talablari asos qilib olindi.

Kalit so'zlar: *Microsoft Windows terminologiyasi; orfografiya; imlo me'yorlari; transliteratsiya; kalkalash; o'zlashma (borrowizm); chiziqcha bilan yozish; apostrof bilan qo'shimchalash; bosh harf/kichik harf; qisqartmalar.*

Kompyuter texnikasi atamaları o'zbek tiliga, asosan, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashma yo'l bilan kirib kelmoqda. Vindovs operatsion tizimi interfeysidagi ko'plab elementlarning nomi ham o'zbek tilida tarjima qilinmasdan ishlatiladi. Masalan, *File, Printer, Monitor, Internet, Klaviatura* kabi atamalar aynan asl shaklida yoki rus tili vositasi orqali tilimizga singib ketgan. Olimlarning ta'kidlashicha, kompyuter terminlarining aksariyati allaqachon mavjud bo'lgan umumtil birliklarining yangi ma'noda qo'llanishidir¹. Haqiqatan, *mouse (sichqoncha), desktop (ish stoli)* kabi atamalar dastlab umumxalq tilida boshqa ma'noda bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik kompyuter sohasida termin sifatida yangicha ma'no kasb etgan. O'zbek tilida ham *mouse* so'zining tarjimasida *sichqoncha* atamasi ishlatila boshlandi, *disk* atamasi esa kompyuter leksikasiga shu shaklda qabul qilindi. *Internet etikasi (netiket)* kabi birikma ham so'zma-so'z tarjima yo'li bilan termin sifatida o'zlashganini ko'rish mumkin.

Biroq Vindovs tizimidagi ko'pgina tushunchalar, asosan, o'zbek tiliga tarjimasiz kirib kelgan. Microsoft Vindovs nomining o'zi brend sifatida o'zbek matnlarida ko'pincha asl shaklida uchraydi. Ba'zi manbalardan *Microsoft* so'zi *Mikrosoft* yoxud *Maykrosoft* tarzida yozilishi mumkin, *Windows* esa *Vindovs* shaklida beriladi. Bu o'rinda *Windows* atamasining ma'nosiga izoh berilsa, u ingliz tilida *oynalar* degan ma'noni anglatadi. Informatika bo'yicha qo'llanmalarda *window* so'zi o'zbekchada *oyna* yoki *lavha* deb tarjima qilinishi, *windows* esa ko'plikda *oynalar, lavhalar* ma'nosini bildirishi qayd etiladi². Shunga qaramay, amaliyotda *Windows* operatsion tizimi nomi o'zbek tilida tarjima qilinmaydi, ya'ni *Microsoft Windows* nomi to'g'ridan-to'g'ri ishlatiladi (garchi ushbu me'yor “O'zbek tilining asosiy imlo

¹ Gafurova N. I. Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 2021. – P. 571-575.

²<https://ituz.blogspot.com/2016/02/window-inglizcha-soz-bolibozbek-tiliga.html#:~:text=%E2%80%9CWINDOW%E2%80%9D%20inglizcha%20so%E2%80%99z%20bo%E2%80%99lib%2C%20o%E2%80%99zbek,%E2%80%9Coynalar%E2%80%9D%2C%20%E2%80%9Clavhalar%E2%80%9D%20deb%20tarjima%20qilinadi>

qoidalari”da mavjud bo’lmasa ham). Qoidalarda atoqli otlar, korxonalar va mahsulot nomlari bosh harf bilan yozilishi ko’rsatiladi, ular asl yozuvda qolish yoki qolmaslik yo transkripsiya qilinishi bo’yicha alohida belgilab qo’yilmagan. O’zbek tilining agglyutinativ xususiyati brend va mahsulot nomlariga morfologik qo’shimchalar birlashtirishda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Hozirgi asosiy imlo qoidalari faqat qaysi nomlar bosh harf bilan yozilishini belgilaydi, lekin Microsoft Windows kabi brendlarga qo’shimcha qanday ulanadi, degan maxsus qoida yo’q³.

Rasmiy imlodagi ochiq qolgan masalani quyidagi oddiy qoidalar bilan to’ldirish mumkin:

1. *Brend nomini tarjima qilmaslik*, asl lotin yozuvida qoldiriladi. *Microsoft Windows, Google Chrome, Adobe Photoshop* (Bu – xalqaro texnik yozuv amaliyotiga to’g’ri keladi).

2. *Qo’shimchalar qo’shish modeli quyidagicha: brend nomi + ’ (apostrof) + qo’shimcha: Windows’ning, Windows’da, Windows’ga.*

Bu yozuv qo’shimcha chegarasini yaqqol ajratadi va o’/g’ uchun ishlatiladigan belgi bilan chalkashmaydi.

3. *Raqamli modellar: brend + raqam + apostrof + qo’shimcha: Windows 11’ni, Windows 11’da.*

4. *Birlamchi izoh ixtiyoriy: birinchi marta ishlatiladigan terminni to’liq shaklda talaffuz qilish lozim. Microsoft Windows (Mikrosoft Vindovs), keyin faqat Windows’ni ishlatish yetarli.*

Microsoft Terminology platformasida o’zbekchalashtirilgan terminlarning to’liq ro’yxati tahlil qilinsa, ularning qanchalik noqulay imlo va talaffuzga ega ekanligini tasavvur qilish mumkin. Masalan, *media streaming* ikki komponentli birikmani o’zbek tiliga tarjimasini *mediyani oqimli uzatish* tarzida keltirilgan. *Oqimli uzatish* to’g’ridan-to’g’ri tarjima (kalka) qilingan bo’lib, oddiy foydalanuvchi hozir buni tushunmaydi. Bugungi kunda *stream* so’zi keng ommalashmoqda, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda yoki media mahsulotlari ishlaydigan platformalarda, xususan, *youtube*. Shunda ushbu atama fonetik adaptatsiyaga uchragan holda *strim* tarzida o’zbek tiliga talaffuz qilib moslashtirilmoqda. Vaholanki, ikki tilli tarjima lug’atlarida *stream* so’ziga 1) *oqim, oqar suv*; 2) *ariq, soy*; 3) *oqib bormoq*, 4) *tomchilamoq*⁴ kabi tarjimalar keltirilgan, vaholanki, mediaga oid bo’lgan tarjimasini mavjud emas, foydalanuvchilar nutqdagi kontekstga qarab ushbu so’zni asl holicha *strim* tarzida qo’llashmoqda. Birorta foydalanuvchi *oqimli uzatish* deya ishlatmaydi. Bunday holatning asosiy sababi – ushbu platformada *media streaming* terminiga mos muqobil aniqlanmaganligi va natijada o’zbek tilida sodda so’z orqali tarjima qilib qo’yilgandadir. O’zbek tiliga tarjima qilingan birikma o’zbekcha termin deyish noo’rin. Balki *oqimli* so’zining o’rniga boshqa so’z ishlatish mumkin, masalan, kontekstlarga moslashtirish uchun *uzluksiz, onlayn, ijro/uzatish* kabi so’zlar bilan o’zgaritilsa, biroz tushunarli bo’ladi: *media streaming, audio streaming, live streaming – uzluksiz video ijro, uzluksiz audio ijro, jonli efir, uzluksiz media ijro* kabi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, o’zbek tili globallashtirish sharoitida texnik terminlarni faol qabul qilish ekan, milliy tilning ifoda qudratini saqlab qolish va boyitishni maqsad qilishi zarur. Bu yo’lda ilmiy yondashuv (korpus tilshunosligi va terminografiya), amaliy choralar (lug’atlar tuzish, standartlar qabul qilish) va keng targ’ibot (ta’lim va matbuot orqali) uyg’un

³ <https://lex.uz/docs/-1625271>

⁴ Butayev Sh. English-uzbek, uzbek-english dictionary: 80000 words and expressions. – Toshkent: FANUM nashriyoti, 2013. – B. 330.



olib borilsa, kutilgan samara beradi. Zero, kompyuter va korpus lingvistikalari tilni tartibga solish va uni yangi davrga mos shakllantirishda eng zarur vositalardan sanaladi. Yangi terminlarni o'zlashtirish jarayonida tilimizning ichki imkoniyatlari hamda xalqaro tajribani hisobga olgan holda harakat qilsak, o'zbek tili ilm-fan va texnika tillari orasida munosib o'rin egallashi shubhasiz. Shu tariqa, "Windows" dunyosining terminlari ham o'zbek tilida me'yoriy asosda, ravon va ravshan yangraydigan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Butayev Sh. English-uzbek, uzbek-english dictionary: 80000 words and expressions. – Toshkent: FANUM nashriyoti, 2013. – B. 330.
2. Gafurova N. I. Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 2021. – P. 571-575.
3. <https://ituz.blogspot.com/2016/02/window-inglizcha-soz-bolibozbek-tiliga.html#:~:text=%E2%80%9CWINDOW%E2%80%9D%20inglizcha%20so%E2%80%99z%20bo%E2%80%99lib%2C%20o%E2%80%99zbek,%E2%80%9Coynalar%E2%80%9D%2C%20%E2%80%9Clavhalar%E2%80%9D%20deb%20tarjima%20qilinadi>
4. <https://lex.uz/docs/-1625271>.